DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-05-03-44 Pages: 407-419

Oriental Journal of Philology



"KIFAYATU-N-NAHV -L-E'RĀB" THE PROPERTIES OF MAF'ULS IN THE WORK

Mansur D. Jumaniyazov
Intern Teacher
Higher School of Arab Studies
Tashkent State University of Oriental Studies
Email: davlatboymansur@gmail.com
Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: Emphasizing complement, Direct object, Adverbials of place and time, Accompaniment complement, Complement of purpose and reason.

Received: 06.03.25
Accepted: 08.03.25
Published: 10.03.25

Abstract: This research explores the "accusative case of nouns" in Arabic, specifically the occurrences and characteristics of words in the accusative case. The article examines the accusative case of words based on information presented in Ziyoviddin Makkiy Khorazmiy's work "Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb". Given that this work is a classic text, its views on the accusative case are compared with the approaches of other contemporary linguists.

The aim of the research is to analyze the rules of the accusative case presented in the work, providing their expressions in Uzbek and expanding the topic.

"KIFAYATU-N-NAHV -L-E'RĀB" ASARIDA MAFULLARNING XOSSALARI

Mansur D. Jumaniyazov
Stajyo'r-o'qitivchi
Arabshunoslik Oliy Maktabi
Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti
Email: davlatboymansur@gmail.com
O`zbekiston, Toshkent

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ma'no kuchaytiruvchi to'ldiruvchi, Vositasiz to'ldiruvchi, O'rin va payt hollari, Birgalikni ifoda qiluvchi to'ldiruvchi, Maqsad va sababni ifoda qiluvchi to'ldiruvchi.

Annotatsiya: Tadqiqot arab tilida "Ismlarning nasb holati" ya'ni so'zlarning tushum kelishigida kelishi va ularning xususiyatlari o'rganadi. Maqolada so'zlarning tushum kelishigi Ziyoviddin Makkiy Xorazmiy "Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb" asarida keltirilgan malumotlar asosida

o'rganiladi. Bu asar kalsssik asar ekanligini hisobga olib uning tushum kelishigi borasidagi qarashlari boshqa zamonaviy nahvshunoslarining yondashuvi bilan qiyoslanadi.

Tadqiqotning maqsadi asarda keltirilgan tushum kelishigi haqidagi qoidalarni tahlil qilish va ularni o'zbek tilidagi ifodalarini berib, mavzuni kengaytirish.

СВОЙСТВА МАФ'УЛОВ В РАБОТЕ "КИФАЯТ АН-НАХВ -ЛЬ-И'РАБ"

Мансур Д. Джуманиязов
Стажер-преподаватель
Высшая школа арабистики
Ташкентский государственный университет востоковедения
Email: davlatboymansur@gmail.com
Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Усиливающее дополнение, Прямое дополнение, Обстоятельства места и времени, Совместное дополнение, Дополнение цели и причины.

Аннотация: Данное исследование посвящено изучению "винительного падежа имен" в арабском языке, то есть особенностей употребления слов в винительном падеже. В статье рассматривается винительный падеж слов на основе информации, представленной в произведении Зиявуддина Макки Хорезми "Кифаят ан-нахв фи илм аль-и'раб". Учитывая, что это произведение является классическим, его взгляды на винительный падеж сопоставляются с подходами других современных лингвистов.

Целью исследования является анализ правил винительного падежа, представленных в произведении, с их переводом на узбекский язык и расширением темы.

Ismlarning nasb holati ya'ni tushum kelishigi arab tilida eng ko'p qo'llaniladigan kelishiklardan biri hisoblanadi. Tushum kelishigi haqida arab grammatikasiga oid manbalarda batafsil ma'lumotlar berilgan. Ko'pincha arab tilshunoslari ismlarning nasb holatiga umumiy tushincha bermasdan uning turlarini sanab, ularga sharhlar bergan. Ammo rus va o'zbek tilshunoslari ismlarning nasb holatini qiyosiy o'rganib o'z tillarida ularning muqobil shakklarini tahlil qilib umumiy va xususiy malumotlarni keltirib, fikrlarini bayon qilgan.

Arab tilida nasb holati, yaъni tushum kelishigi haqida mashhur rus arabshunosi B.M.Grande quyidagicha ma'lumot beradi: "Tushum kelishigi ismning fe'lga tobeligini ifodalaydi. Bu tobelik turlicha, ya'ni vositasiz to'ldiruvchidan tortib, ish-harakatni aniqlaydigan,

cheklaydigan va rivojlantiradigan turlargacha bo'lishi mumkin. Bu to'ldiruvchilar nasb holatida turadi va fe’lga tavsif beradi. Bunday tavsiflar hind¬evropa tillarida, masalan, ravish yoki holatni bildiruvchi so'zlar yordamida ifodalanadi. Bu kelishikni keng ma’noda “fe’l” yoki “ravish” kelishigi deb atash to'g'riroq bo'lar edi. Bunda “ravish” kelishigi tushunchasi bilan birga obekt kelishigi ham tushunilishi kerak” [ГрандеБ.М. 2001-у. 1.328с.]. Arab tilida nasb holati-tushum kelishigi ismning fe’lga tobeligini rasmiylashtirish vositasidir. Shunga ko'ra, nasb holatidagi so'z o'zi bog'liq bo'lgan gap bo'lagi fe’l¬kesim bilan ma’no tomonidan mustahkam bog'langan bo'ladi.

Asl tushum kelishigidagi ismlar ular to’ldiruvchilar bo’lib, ularning birinchisi المفعول المطلق-«Ma’no kuchaytiruvchi to’ldiruvchi» hisoblanadi. U masdardir. Masalan; ضربت ضربا «men urdim». Olim masdarni quydagicha bayon qiladi. إنما سمي المصدر مصدرا لأن الفعل يصدر عنه. «fe’l o’zagi -ish harakat masdar deyiladi. Chunki fe’l masdardan yasaladi». Masdar ikki qisimga bo’linadi.1. مبهمnoaniq. Masalan; ضربت ضربا «men urdim». Bu misolda urishning biror turi tayin qilinmagan. جلست جلوسا«men otirdim». Bu misolda ham otirishning malum shakli ko’rsatilmagan.

2. مؤقت محدودaniq belgilangan. ضربت ضربة «bir urish bilan urdim», جلست جلسة «bir otirdim», ikkita misolda ish harakatning aniq sonini bildiryapti.

Ibn Hojib المفعول المطلق-«Ma’no kuchaytiruvchi to’ldiruvchi»ni uch hil holatda kelishini ta’kidlaydi. 1.ta’kid uchun; جلست جلوسا«men otirdim». 2.navini bildirish uchun; جلست جِلسة«bir nav bilan otirdim» bu otirishning biror turiga dalolat qilyapti. 3.adad uchun; جلست جَلسة«bir otirdim» o’tirishning soniga dalolat qiladi [Ibn al-Hajib, Tashkent, 2018, p. 46].

Ko’rinib turibdiki Ziyoviddin Makkiy Xorazmiy masdarni ikki qisimga aniq va noaniq qismga bo’lib, keyin uning turlarini ikki mavzuning ichida tushuntiryapti. Ibn Hojib to’g’ri masdarning ma’no hususiyati etiboridan uch qisimga bo’lgan. Ammo uni Xorazmiy kabi aniq va noaniq ko’rinishida bayon qilmagan. Sakokiyning qarashlari Xorazimiyning qarashlari bilan bir hil bo’lib Sakokiy ham masdarni ikki turga aniq va noaniq turga bo’lib bir hil bayon qiladi [Al-Sakaki, 1987, p. 621].

قد ينصب الإسم على المصدرية و ليس من لفظ الفعل و إنما هو بمعناه » Fe’lning o’zagidan bo’lmagan faqat uning ma’nosiga mansub bo’lgan masdari mutloq ham tushum kelishigida bo’ladi». U ikki turga bo’linadi. Masdar va masdar bo’lmagan. Masalan;قعدت جلوسا «yaxshlab o’tirib oldim». Bu misolda جلوسا masdari قعد fe’lining o’zagidan emas. حبست منعا «yxshilab hibs qildim». Bu misolda ham منعا masdari حبس fe’lining o’zagi emas. Masdar bo’lmaganga kelsak u quydagicha- ضربته أنواعا من الضرب « uni har hil kaltaklar bilan urdim». Bu jumlada أنواعا «turlar» so’zi masdar emas. Bularning boshqacha shakli ham keltirilgan. Masalan; رجع القهقري«u orqaga chekinib qaytdi», القهقري so’zi qaytishning bir turi. قعد القرفصاء «chordana qurib o’tirmoq», القرفصاء so’zi o’tirishning

bir turi bo'lib, قعد fe'lining ma'nosiga yaqin bo'lgan masdar [Ziyovuddin Makkiy,10518-raqam 31a-bet].

Ajrumiy esa bu mavzuga umumiy yondashib mutloq masdarni yakdil ikki qismga bo'ladi. 1.Lavziy masdar. U fe'lning lafziga mufiq bo'ladi. Masalan; قتلته قتلا«Men uni o'ltirdim». Bunda قتلا masdari قتل fe'lidan yasalgan. 2. Ma'naviy masdar. U fe'lning lavziga emas ma'nosiga muofiq keladi. Masalan; قمت وقوفا «men turdim». Bu misolda وقوفا so'zi قام fe'lining masdari emas. Balki u bilan sinonim ma'noga ega bo'lgan masdardir [Abu Anas Malik, 1435 AH. p. 219].

Ko'rib turganimizdek Ajrumiy Mutloq masdarning tushum kelishigida kelishini umumiy ikki qisimga bo'lib o'rgangan bo'lsa, Ibn Hojib masdarning ifoda usulidan kelib chiqib uch turga bo'lgan holda uning ma'nolarini tushuntiradi. Ammo Xorazimiy masdarning umumiy xususiyatlariga etibor berib uni ikki qisimga va ifoda usili jihatidan yana ikki qisimga umumiy to'rt qisimga bo'lib o'rgangan. Bu esa mavzuning qisqa bo'lsa ham keng o'rganilganligini anglatadi.

Yuqoridagi malumotlardan ko'rinib turibdiki Mutloq masdar arab tilida juda ko'p ishlatiladigan va o'ziga hos ahamiyatga ega mavzularidan biri bo'lib olim o'z asarida unga bog'liq qoidalarni oyat, she'riy baytlar va og'zaki nutqda ko'p ishlatiladigan so'zlar bilan tushuntirgan.

Alloma keltirgani kabi nasb holatida ya'ni tushim kelishigida keladigan yana bir to'ldiruvchi المفعول به «al-maf'ul bihi» hisoblanadi. Arab tilida «Al-maf'ul bihi» gapda fe'l ifodalagan ish harakatni mazmunan to'ldirib kimni – nimani, kimga – nimaga, kimdan – nimadan so'roqlariga javob bo'lib, nasb holatida – tushum kelishigida fathaga tugaydi. Asarda المفعول به ga quydagicha ta'rif beriladi. المفعول به«هو الذى يقع عليه فعل الفاعل eganing ish harakatni fe'lning ustida bajarishidir». Masalan; ضرب زيد عمرا «Zayd Amrni urdi», منع بكر خالدا «Bakr Xolidni to'xtatdi», ذكرت الله و عبدته «Allohni esladim va unga ibodat qildim» . Bu jumlalarda عمرا خالدا , va الله so'zlari gapda المفعول به bo'lib kelyapti. Alloma المفعول به o'timli va o'timsiz fe'llarning orasini ajratuvchi deb ham ataydi. Chunki ذهبت«men bordim», حرجت«men chiqdim» kabi o'timsiz fe'llardan keyin المفعول به kelmaydi.

Ba'zida المفعول بهegadan oldinga otishi mumkin. Masalan; ضرب عمرا زيد «Zayd Amrni urdi». عمرا so'zi المفعول به bo'lib, egadan oldin kelyapti.

المفعول به gapning ifoda uslubiga qarab fe'ldan oldin ham kelishi mumkin. Masalan; زيدا ضربت«Zaydni urdim». Bu jumlada Zayd ismi المفعول به bo'lib fe'ldan oldin kelyapti. *إياك نعبد* «Sengagina ibodat qilamiz»(fotiha-5). Bu oyatdagi ك birikma olmoshi المفعول بهbo'lishiga qaramasdan fe'ldan oldin kelyapti [Ziyovuddin Makkiy, 10518-raqam ostida saqlanadi 33a-bet]. Olim المفعول به ning egadan oldin kelishi va uning ba'zi holatlarda fe'ldan oldin ham kelishi

mumkinligini misollar bilan dalillagan. Bu ikki qoida Mufassal va Unmuzaj asarlarida hatto Zamaxshariyning shogirdi Mutarziyning Al-misbah kitobida ham keltirilmagan. Bundan ko’rinadiki “Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb” asari o’sha davrda yozilgan ba’zi nahv kitoblarida keltirilmagan ba’zi qoidalarni keyingi jaroyondagi talablardan kelib chiqib kiritib ularga sharhlar bergan.

Asarda المفعول به ning ko’plab turlari va ularning hususiyatlari zikir qilingan bo’lib, keyingi faslda olim uning fe’lining gapda yashiringan holatda kelishini bayon qiladi. قد يجيء المفعول به منصوبا بفعل مضمر » المفعول به gapning hususiyatiga ko’ra yashiringan fe’l bilan kelishi mumkin». U ikki hil bo’ladi. 1. ما يستعمل إظهاره«Yashiringan fe’l keltirilishi mumkin bo’ladigan holat». 2. ما لا يستعمل إظهاره« Yashiringan fe’l keltirilishi mumkin bo’lmaydigan holat». Fe’lning yashiringan holatda kelishi -masalan; Gapirayotib gapini to’xtatgan kishi uchun حديثك «gapingni» deyishing. Bu misolda المفعول به ning هات «keltir» fe’li yashiringan. Aslida هات حديثك «so’zingni keltir» shaklida bo’ladi. Baxillik qiladigan kishiga- أكل هذا بخلا«buning har biri baxillikdanmi» deyishing. Bu misolda يفعلهfe’li yashiringan. Aslida أ يفعل كل هذا بخلا «u baxillik qilyaptimi» shaklida bo’ladi.

Tush ko’rgan kimsaga خيرا«yahshilik» deganing kabi. Bu so’zda ham رأيت fe’li yashiringan. Aslida رأيت خيرا «shahshilikni ko’ribsan» yoki رأيت خيرا لنا و شرا لأعدائنا«biz uchun yahshilikni dushmanlarimizga yamonlikni ko’ribsan».

Voqelikni to’g’ri va fasohat bilan ifoda qilishdagi arablarning ba’zi javob so’zlarida ham المفعول به ning fe’li tushirib qoldiriladi. Masalan; لم أفسدتم مكانكم ؟ «nimaga joyingizni buzdinglar» degan savolga - الصبيان بأبي«bolalar» ya’ni لم الصبيان «bolalarga tanbeh ber» deb, javob beradi. Bu jumlada لم «tanbeh ber, malomat qil» ma’nosidagi fe’l yashiringan. Xorazmiy bu misolni Sibavayhning Al-kitob asaridan keltiradi [Sibawayh, 1988, p. 352/1]. Bu esa Alloma asarni yozishda ko’plab nahvshunoslarning qarashlarini o’rganib yozganligini ko’rsatadi.

2. ما لا يستعمل إظهاره«Yashiringan fe’l keltirilishi mumkin bo’lmaydigan holat». Bu holat asosan ogahlantirish ma’nosidagi jumlalarda uchraydi. Masalan; إياك و الأسد«Sengina va sher». Bu jumlada اتق «Ehtiyot bo’l» fe’li yashiringan. Aslida; اتق نفسك أن تتعرض للأسد أو اتق الأسد أن يهلكك «o’zingni sherga duch kelishdan asra yoki sher seni halok qilishidan ehtiyot bo’l» shaklida bo’ladi.

«إياك وما يعتذر منه» وكذلك «إياكم و الغيبة» Hadisi sharifda “sen uzur aytiladigan ishdan ehtiyot bo’l. Shuningdek “sen g’iybat qilishdan saqlan”». Bu ikki hadisda ogohlantirishni ifoda qiluvchi buyruq fe’li tushirib qoldirilgan va ogohlantirish ko’makchisi bilan kelgan [Ziyovuddin Makkiy, 10518-raqam 34a-bet].

Duo ma’nosidagi so’zlarda ham bu qoida ko’p qo’llaniladi. Masalan; أهلا و سهلا و مرحبا «hush kelding marhamat». Aslida » أتيت أهلا لا أجانب وطئت سهلا من الأرض لا حزنا و أصبت مرحبا لا ضيقا

begonalar bo'lmagan o'z ahlinga kelding, notekis bo'lmagan yahshi joyga tushding, tor bo'lmagan kenglikka erishding». Muallif bu qoidani duo monasida aytiladigan so'zlar deb alohida guruhga kiritgan. Boshqa nahv kitoblarida masalan Kofiya kitobida fe'llarning vojib ravishda tushib qolishi mavzusida bu mavzu umumiy tushuntiriladi [Ibn al-Hajib, 2018, p. 51].

Arab tilida المنادى«Undalma» ham nasb holatida-tushim kelishigida keladigan ismlardan biri hisoblanadi. Biroq Ziyovuddin Makkiy Xorazimiy undalmani nasb holatidagi ismlarning alohida turi sifatida kiritmagan. Balki nasb holatidagi ismlarning eng mashhuri bo'lgan المفعول به mavzusining ichida alohida fasllarda bayon qilgan.

من المنصوب الذى يلزم إضماره عامله المنادى «uning sintaktik vazifa bajaruvchisini yashirish shart bo'lgan tushum keishigida keladigan ismlardan biri undalmadir» [Ziyovuddin Makkiy, 10518-raqam 35a-bet]. Masalan; يا عبد الله«hey Abdulloh». Bu jumlada أريد«hohlayman», أعنى «nazarda tutyapman» fe'li ko'p ishlatilganligi sababli tushib qoldirilib يا fe'lning o'rnini egallagan. Aslida عبد الله أريد «Abdullohni hohlayapman» shaklida bo'ladi.

Asfahoning Sharhu-l-lama asarida Abul Fath undalma ismlar uch turga bo'linishini ta'kidlaydi. 1.birlik ot 2.muzof-qaralmish, 3.muzofga o'xshash shakllarda keladi [Al-Baquli, 1990, p. 671]. Xorazmiy ham undalmaning uchta holatda tushim kelishigida kelishini ta'kidlaydi. 1.Agar muzof bo'lsa 2. Muzofning ohshashi bo'lsa 3. Noaniq holatdagi ism bo'lsa.

1.Agar muzof bo'lsa. Masalan; يا غلام زيد «ey zaydning g'ulomi», يا رسول الله «ey allohning rasuli». Bu bu ikkita jumlada غلام va رسول so'zlari muzof undalma bo'lib tushim kelishigida bo'lyapti.

2. Muzofning ohshashi bo'lsa. Msalan; يا خيرا من زيد«ey Zayddan yahshi», يا ضاربا زيدا «ey Zaydni uruvchi», يا حسنا وجهه «ey yuzi chiroyli». ضاربا , خيرا va حسنا so'zlari muzofning o'hshashi bo'lib undalma maqomida bo'lganligi sababli tushim kelishigida kelyapti.

3. Noaniq holatdagi ism bo'lsa. Bunda asosan nomalum shaxsga murojat qilganda undalma tushum kelishigida bo'ladi. Ko'r kishining quydagi so'ziga ohshash.يا رجلا خذ بيدي «ey kishi qo'limdan ushla». Bu gapda رجلا so'zi noaniq holatda kelib tushum kelishigida kelyapti. Ammo agar aniq shaxsga murojat qilinsa undalma bosh kelishikda bo'ladi. Biroq mazmunan tushum kelishigida turibdi deb hisoblanadi. Masalan; يا زيد«ey Zayd», يا رجل أقبل «ey kishi yaqinlash». Bu ikkita misolda زيد va رجل so'zlari bosh kelishikda tursa ham munoda hisolanganligidan tushum kelishigida turibdi deb hisoblaymiz.

Undalma yuklamasidan keyin ikkita atoqli ot orasida ابن «o'g'il» so'zi kelsa munodani ham undan keyin kelgan so'zni ham tushum kelishigida o'qiysan. Masalan; يا زيد بن عمرو «Ey amrning o'g'li». Agar ulardan biri atoqli ot bo'lmasa munodoni bosh kelishikda ikkinchi bo'lakni tushum kelishigida o'qiysan. يا زيد ابن أخينا «Ey akamning o'g'li Zayd» [Ziyovuddin Makkiy, 10518-raqam 39a-bet].

يأيها الرجلso'zidagi أيُّ so'zi munodo الرجل so'zi uning sifati hisoblanadi.Ya'ni sifat va sifatlanmish . Aksar ulamolar bu tarkibni mavsuf -sifat deydilar. Lekin "Alfiya " kitobida ism ot bo'lsa izohlovchi bo'ladi, agar u yasalgan bo'lsa sifat bo'ladi deyiladi [Dr. Ali Moussa Al-Shoumali, 1985, p. 1033]. Zamaxshariy esa يأيها الرجلning tarkibi hususida to'xtalmagan. هاmunoda va sifatning orasini ishora qilish uchun bo'g'lovchidir. Bu misolda الرجل so'zi faqat bosh kelishikda keladi [Ziyovuddin Makkiy, 10518-raqam 39b-bet].

Undalma harfi Alloh so'zidan boshqa alif va lam harfi bor so'zlar oldidan kelmaydi. Chunki Alloh so'zidagi alif va lam hamza harfining o'rniga kelgan. masalan; ياالله«Ey Alloh». Sakkokiy bu misolda Alloh so'zidagi «Al» artikili aniqlikni ifodalamaydi. Chunki Alloh esa har zamon va makanda ma'lumdir deydi [Al-Sakaki, 1987, p. 102].

Undalmaga yordamni va hayratni ifoda qiluvchi «lam» harfi qo'shilganda «lam»ning harakati fatha(a) bo'ladi. Masalan: يا لله للمسلمين«Ey Alloh musulmonlarga yordamga». Hayratni ifoda qilishda ham huddi shu shaklda bo'ladi. Masalan: يا للدواهى«qanday falokatlar». Bu qoidani yanada kengroq ochib berish uchun Xorazmiy ustozi Zamaxshariyga tegishli bo'lgan basit vaznidagi she'rni misol qilib keltiradi.

محمد إن تصف أدنى خصائصه

فيالها قصة فى شرحها طولُ

Muhammad agar uning eng past xususiyatlarini tavsiflasang ham

Uning sharhi qandayam uzin qissa.

She'rdagi فيالها قصة «qanday ajoyib qissa» tarkibi taajubni ifoda qilib qoidaga mos bo'lyapti. Zamaxshariy aynan mana shu qoidaga quydagi she'riy baytni misol qilib keltiradi.

يا لَعطافِنا و يا لَلرياحِ

و أبي الحشرج الفتى النفاح

Ey bizning Attof va yurtdoshlar

Va sahiy yigit Abu Hashraj (yordam beringlar) [Al-Zamakhshari, 2003, p. 62].

Misollardan ko'rinadiki ikkita olimning qarashlari ko'p joylarda bir hil bo'lsa ba'zi joylarda ayrim xususiyatlari bilan farqlanadi.

Asarda munodo mavzusidan keyin المفعول به mavzusining davomi sifatida boshqa ismlarning ba'zi holatlarda tushim kelishigida kelish qoidalarini yoritib o'tadi. Ismlarning tushim kelishigida keladigan o'rinlardan yana biri yashiringan omil sababidan ism tushim kelishigida keladi. Maslan; إنا معشر العرب نفعل هذا « Haqiqatda biz arablar jamoasi buni bajaramiz», نحن آل فلان كرماء«Biz falonchilar oilasi hurmatlimiz». Bu ikkita jumlada نذكر «biz zikr qilinamiz», نعنى «biz nazarda tutilamiz» ma'nosidagi fellar yashiringan. Bu qoidada ismning nasb holatida kelishining sababini Zamaxshariy xoslash deb, tushintiradi. يقصد به الإختصاص لا النداء «u bilan nido emas xoslash nazarda tutiladi» [Al-Zamakhshari, 2003, p. 67]. Sakokiy ham xoslash ma'nosida deb

ta’kidlab, yshiringan omil sababidan deb keltirmagan [Al-Sakaki, 1987, p. 109]. Quydagi holatlarda ismlarning tushim kelishigida kelishi ixtiyor qilingan. 1. So’roq olmoshidan keyin kelsa. Msalan; أ عبدَ الله ضربته «Abdullohni sen uni urding». Bu jumlada عبدَ الله so’zi so’roq olmoshidan keyin kelganligi sababli tushim kelishigida turibda. 2. إذا shart yuklamasidan keyin kelsa. Masalan; إذا عبدَالله تلقاه فأكرمه« Agar Abdullohni ko’rsang uni ikrom qil». Shart yuklamasidan keyin kelgan عبدَالله ismi tushim kelishigida turibdi. 3. حيثo’rinni ifoda qiluvchi yuklamadan keyin kelsa. Masalan; حيث زيدا تجده فاضربه. «Zaydni qaerda topsang uni ur». 4.inkorni ifoda qiluvchi harfdan keyin kelsa. Msalan; ما زيدا ضربته «Men Zaydni urmadim». 5. إنْ shart yuklamasidan keyin kelsa. Masalan; إنْ زيدا رأيته يكرمك«Agar sen zaydni ko’rsang seni ikrom qiladi» [Ziyovuddin Makkiy, 10518-raqam 50a-bet].

Lekin Zamaxshariy va Ibn Yaish bu o’rinda ismning tushim kelishigida kelishi ixtiyorli emas balki lozim bo’ladi deb ta’kidlaydi [Ibn Yaish, al-Allama, 2001, p.1. 415].

Musannif المفعول به mavzusini uning tushirib qoldirilishiga doir qoidalar bilan yakunlaydi. المفعول به ning tushirib qoldirilishi ikki hil holatda bo’ladi. 1. المفعول به nutqan tushib qoladi uning ma’nosi iroda qilinadi. Masaln; *الله يبسط الرزق لمن يشاء و يقدر* « Alloh hohlagan kimsaning rizqini keng va hohlaganini tor qiladi»[Rad-26]. Bu oyatda يقدر fe’lining مفعول به si tushib qolgan. Asl ko’rinishi يقدره «uni (rizqni) tor qiladi» shaklida bo’ladi. 2. المفعول بهbiror narsa iroda qilinmasdan tushib qoladi. Balki uning fe’li o’timsiz fe’l kabi unitib tark qilinadi. Masalan: فلان يعطى و يمنع «Fulon beradi va man qiladi» [Ziyovuddin Makkiy, 10518-raqam 50b-bet]. Bu jumlada fe’lning kimga nimani so’rog’iga javob bo’luvchi to’ldiruvchisi tushirib qoldirilgan.

Asl tushim kelishikdagi ismlardan biri المفعول فيه«Maful fihi» bo’lib, “Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb” asarida bu to’ldiruvchiga olim quydagicha ta’rif beradi. هو الظرف الذى يقع فيه الفعل«U shunday holki fe’l uning ichida ish harakatni amalga oshiradi». U ikki tur bo’ladi; Payt va O’rin. Masalan; خرجت يوم الجمعة«Juma kuni chiqdim». Bu jumlada “juma kuni” paytni bildiryapti. جلست أمامك «sening oldingda o’tirdim». Bu jumlada “oldingda” so’zi o’rini ifoda qilyapti. Bu ikkita holni yana ikki qismga bo’ladi. 1.مبهم «noaniq». U payt, vaqt, olti taraf kabi ma’lum chegara va cheklangan hududga ega bo’lmagan so’z. 2.موقت «aniq».U kun, kecha, uy, bozor kabi ma’lum chegara va cheklangan hududga ega bo’lgan ism. Payt holi u aniq bo’ladimi noaniq bo’ladimi tushim kelishigida bo’ladi. Maslan; خرجت وقتا من الأوقات«bir vaqt chiqdim», لقيته بكرة«ertalab uchratdim». Ikkita gapda وقتا va بكرةso’zlari tushim kelishigida keldi. O’rin holiga kelsak u faqat noaniq bo’lsa tushim kelishigida keladi. Masalan;* لا يلبثون خلافك * «sening ortingda tura olmaydilar»[Isro-76). Agar ish harakat belgilangan hududda sodir bo’lsa في old ko’makchisi kerak bo’ladi. Masalan: صليت فى المسجد«masjidda namoz o’qidim». Agar صليت المسجد deb, aytish joiz emas. Masalan; دخلت البيت«uyga kirdim». Bu shakl kamyob uchraydigan va boshqa fe’lga qiyoslanmaydigan holat ekanligini ta’kidlaydi. Abu Umar Jurmiy دخل fe’li o’timli fe’l bo’lganligi

sababli uning to'ldiruvchisi tushim kelishigida bo'ladi deydi. Lekin aksar nahvshunoslar دخل fe'li o'timsiz fe'l bo'lib uning old ko'makchisi tushirib qoldirilganligini bayon qiladi. Anbariy ham bu fikrga qo'shilib bu felning masdari va o'hshashlari old ko'makchi bilan keladi deydi [Al-Anbari, 1377 AH, p. 181].

Alloma o'rin va payt hollaridan bo'lgani uchun tushim kelishigida keladigan ismlar ikki hil bo'ladi. 1. Holatni ifoda qilishdan chiqib, boshqa ismlar kabi bosh, tushim va qaratqich kelishigida o'zgarishi joiz bo'ladi. Masalan; مضى اليومُ «kun o'tdi» bosh kelishikda, زجيت اليومَ «kunni o'tkazdim» tushim kelishikda, لم أر مثل هذا اليوم «bu kunga o'hshashini ko'rmadim» qaratqich kelishigida kelyapti. 2. Faqat payt holini ifoda qiladigan ismlar. Masalan; خرجنا ذا صباح «ertalab chiqdik», سرنا ذات ليلة«kechki payt sayr qildik», لقيته ذات مرة «bir safar uni uchratdim», رأيته عشية و عشاء و مساء بكرة «uni kechki payt, oqshomda ertalab ko'rdim»shaklida bo'lib faqat tushim kelishigida keladi. O'rin holini ifoda qilib faqat tushim kelishigida keladigan ismlar. Masalan; جلست وسط الدار «hovlining o'rtasida o'tirdim», جلست عند زيد «Zaydning oldida o'tirdim» ko'rinishida bo'lib, bu ism va old ko'makchilardan oldin في ni olib kelish joiz bo'lmaydi [Ziyovuddin Makkiy, 10518-raqam 53b-bet]. Mustafo G'alayoniy «Maful fihi»ni ikki turga bo'ladi. 1. الظرف المتصرف «turlanadigan hol» 2. الظرف غير المتصرف«turlanmaydigan hol» [Al-Ghalayini, 2010, p. 517]. Xorazimiyning bu holatdagi uslubi kengroq tushuntirish iroda qilingan. Shu sababdan payt yoki o'rin holining otga aylanib uchta kelishikda o'zgarishi deb tushuntiradi.

Asl tushim kelishigida keladigan to'ldiruvchilardan yana biri المفعول معه«Maful mahu» bo'lib, arab tilida ko'p ishlatilmasada o'z o'rniga ega. Alloma «Maful mahu»ni quydagicha ta'riflaydi- agar gap fe'lni yoki ma'noni o'z ichiga olgan bo'lsa مع «bilan birga» ma'nosida bo'lgan الواو «bog'lovchi»sidan keyin tushim kelishigida bo'ladigan ism. Masalan; ما صنعت و اباك «otang bilan ishlagan narsang».

Fe'l ma'nosidagi gaplarda ham bu holat kuzatiladi. Masalan; ما شأنك و زيدا ma'nosi ما تصنع معه «Zayd bilan nima qilasan». حسبك و زيدا درهم ma'nosi يكفيك معه درهم «Zayd bilan birga senga dirham etarli bo'ladi. Gapda fe'l yoki uning ma'nosi bo'lmasa agar "vav" مع«bilan birga» ma'nosida bo'lsa ham tushim kelishigida kelmaydi [Ziyovuddin Makkiy, 10518-raqam 54a-bet]. Bunga misol sifatida vafir vaznida yozilgan she'rni misol qilib keltiradi.

كنت هناك أنت كريم قيسٍ

فما القيسيُّ بعدك و الفخار

Sen u yerda bo'lganingda Qaysning sahiyi eding

Sendan keyin faxrlanadigan qayslik qolmadi.

Sibavayh ham aynan shu she'riy baytni mazkur qoidaga dalilsifatida keltirib, "vav" harfi bu o'rinda faqat bog'lovchi ma'nosida kelib undan keyingi ism bosh kelishikda kelishini takidlaydi [Sibawayh, 1988, p. 299/1]. Ibn Yaish ham bu she'rni sharhlab "vav" bog'lavchidan keyingi الفخارُ

so'zini bosh kelishikda keladi. Chunki bu she'rda "vav" مع«bilan birga» ma'nosida kelmagan deydi [Ibn Yaish, al-Allama, 2001, p.1. 445].

Xorazimiy bu mavzuni tushintirishda muxtasarlikka amal qilib, Sibavayh va Ibn Yaish kabi muffassallikdan uzoq bo'lgan. Chunki Muallifning o'zi ta'kidlaganidek asar o'rtamiyona hajmda yozilishi kerak edi.

Nasb holatda keladigan ismlardan yana biri المفعول له «Maful lahu» deb ataladi. O'zbek tilidagi manbalarda u sabab va madsad holi deb nomlangan va hol turkimida o'rganiladi. Xorazimiy «Maful lahu»ga quydagicha ta'rif beradi; علة الفعل و الغرض الذى لأجله يفعل و لا يكون إلا مصدرا من غير لفظ الفعل العامل فيه uning uchun qiladigan fe'lning maqsad va sababni ifodalaydi. U gapda omil fe'lning turidan bo'lmagan masdar bo'ladi. Masalan; ضربته تأديبا «uni odob berish uchun urdim», فعلت ذلك مخافة الشر«o'shani yamonlikdan qo'rqqanim uchun qildim». Ikkita misolda تأديبا va مخافة so'zlari tushim kelishikda kelib «Maful lahu»ni ifoda qilyapti. *ينفق ماله رئاء الناس* «molini insonlarga riyokorlik uchun ehson qiladi»[Baqara-264].

Alloma ketma ketlikka amal qilib avval oddiy gaplar bilan keyin oyatlar bilan va oxirida she'riy bayt bilan qoidani tushuntiradi. Jumladan «Maful lahu»ga misol qilib Hotam Toiyning tovil vaznidagi she'rini keltiradi.

أغفر عوراء الكريم إدخاره

و أعرض عن شتم اللئيم تكرما

Sahiyning yamon so'zini sahiyligini saqlash uchun kechiraman

Yamonning so'kinchidan unga sahovat qilganim uchun uzoqlashaman [Ziyovuddin Makkiy, 10518-raqam 55a-bet]. She'rda إدخاره va تكرماso'zlari «Maful lahu» hisoblanadi.

Xorazmiy «Maful lahu»ga umumiy sharh va misollar keltirib, uning shartlarini bayon qiladi. «Maful lahu»ning uchta sharti bor. 1. Masdar bo'lishi, 2. «Maful lahu» uning fe'li yetakchi fe'lning egasining fe'li bo'lishi. 3. «Maful lahu» zamonda va mazmunda fe'lga bog'liq bo'lishi. Mana shu shartlar bo'lmasa nasb bo'lishi joiz bo'lmaydi. Lekin "Lam" bilan keladi. Masalan; جئتك للسمن و اللبن «senga yog' va sut uchun keldim». Bu misolda "Lam" bilan kelyapti. Chunki السمنva اللبن so'zlari masdar emas. جئتك لإكرامك الزائر«seni ziyoratchi ikrom qilishi uchun keldim». Bu misolda إكرام fe'lining egasi etakchi fe'lning egasi emas. Shuning uchun "Lam" old ko'makchi bilan kelyapti. خرجت اليوم لمخاصمتى زيدا أمس «kecha Zayd bilan tortishganim uchun bugun chiqdim». Alloma bu misolda مخاصمةtortishish» va خروج «chiqish» fe'li ma'no va zamonda o'zaro bog'lanmayapti. Bu o'rinlarda "Lam" old ko'makchisi tushirib qoldirilishi joiz bo'lmaydi. «Maful lahu» aniq va noaniq holatda bo'lishi mumkin. Bunga misol qilib muallif shoir Ajjojning bu ikkala qoidani jamlagan rajz vaznidagi she'rini keltiradi [Ziyovuddin Makkiy, 10518-raqam 56a-bet].

يركب كل عاقر جمهور مخافة و زعل المحبور

و الهول من تهول الهبور

U qo'rqqnidan va quvonchning energiyasidan har bir qup tepaliklarga ko'tariladi

Va shuningdek past makonlarning dahshatli bo'lishidan vahimaga tushgani sababidan.

Alloma aynan qaysi so'z aniq va noaniq holatdagi «Maful lahu» ekanligiga izoh bermagan. Sodrul Afodil bu baytda uchta «Maful lahu» borligini ta'kidlaydi. مخافة noaniq holatdagi «Maful lahu», زعل izofa sababidan aniq holatdagi «Maful lahu», الهول aniqlik artikili bilan aniq holatdagi «Maful lahu» [Al-Khwarizmi, 1990, p.1/421].

Sig'naqiyning "Muvassal" kitobida الهول so'zi كل so'ziga bog'lab to'ldiruvchi qilingan. Yoki الهول so'zini زعل so'ziga bo'g'lab «Maful lahu» qilish to'g'ri bo'ladi deyiladi [Imam Hussein bin Ali bin Hajjaj al-Saghnaqi, 1998 AD, p. 509]. Xorazimiy bu she'rni dalil qilib keltirishda ko'plab nahvshunoslarning qarashlarini o'rganib bahs munozaralarni keltirmasdan aksar ulamolarning fikriga tayanib, yakuniy mulohazani yozganligini quydagi keltirilgan ma'lumotlar ko'rsatadi.

Xulosa. Arab tilida eng ko'p qo'llaniladigan kelishik bu tushum kelishigidir. Tushum kelishigi arab tilida nasb holati, deb nomlanib ular Mafullar ya'ni to'ldiruvchilar xisoblanadi. To'ldiruvchilar asl tushim kelishigidagi ismlar turiga kiradi. Asl nasb holatidagi ismlar مفعول maf'ullardir. Ularning soni beshta bo'lib, barcha tilshunoslar bu borada bir to'xtamga kelishgan. "Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb" asarida ham ularning soni beshta ekanligini ta'kidlaydi. Muallif o'z asarida bu ismlarni chuqur o'rgangan. Qoidalarni dalillashda Qur'oni karimning matnlaridan yoki qisqa oyatlaridan, hadisi shariflardan, she'rlardan, maqol va matallardan keng foydalangan. Maqolada olimning Asl nasb holatidagi ismlar مفعول maf'ullar haqidagi qarashlari o'sha davr nahvshunoslari va keyingi davrdagi nahvshunoslarining qarashlari qiyosan o'rganildi.

Asardagi asl nasb holatidagi ismlar مفعولmaf'ullar o'rganildi. Barcha qoidalar o'zbek tili grammatikasidagi termenlarga qiyoslashga harakat qilindi. Yuqoridagi ma'lumotlardan ham ko'rinib turibdiki, nasb holati ismni fe'lga tobeligini ifodalaydi. Bu tobelik turlicha, ya'ni vositasiz to'ldiruvchidan tortib, ish-harakatni aniqlaydigan, cheklaydigan va rivojlantiradigan turlargacha bo'lishi mumkin. Bu to'ldiruvchilar nasb holatida turadi va fe'lga tavsif beradi. Bunday tavsiflar hindevropa tillarida, masalan, ravish yoki holatni bildiruvchi so'zlar yordamida ifodalanadi. Bu kelishikni keng ma'noda "fe'l" yoki "ravish" kelishigi deb atash to'g'riroq bo'lar edi. Bunda "ravish" kelishigi tushunchasi bilan birga ob'ekt kelishigi ham tushunilishi kerak. Arab tilida nasb holati-tushum kelishigi ismning fe'lga tobeligini rasmiylashtirish vositasidir. Shunga ko'ra, nasb holatidagi so'z o'zi bog'liq bo'lgan gap bo'lagi fe'lkesim bilan ma'no tomonidan mustahkam bog'langan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxat:

1. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fī ilmi-l-e’rāb» O’zbekiston Respublikasi Fannlar Akademiyasi SHarqshunoslik instituti qo’lyozmalar fondi qolyozma nusxasi 10518-raqam ostida saqlanadi.

2. Hamraliev Sherali, Arab tili darsligi; tarkib qoidalari, Movarounnahr nashriyoti,2012-y,-260b).

3. ГрандеБ.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещение. -М., 2001-у. 328¬с.

4. Sibawayh, Abu Bishr, Imam of Grammarians. Kitāb Sībawayh fī al-Naḥw (Sibawayh's Book on Grammar), edited and explained by Abd al-Salam Muhammad Harun, Al-Khanji Library, Cairo, 1988, p. 446.

5. Sibawayh, Abu Bishr, Imam of Grammarians. Kitāb Sībawayh fī al-Naḥw (Sibawayh's Book on Grammar), Al-Khanji Library, Cairo, 1988, p. 445/1.

6. Ibn al-Hajib, al-Allama. Al-Kāfiyah fī al-Naḥw (The Sufficient in Grammar), Beyond the River Library, Tashkent, 2018, p. 217.

7. Al-Baquli, Abu al-Hasan Ali ibn al-Husayn (d. 543 AH). Sharḥ al-Lumaʿ lil-Aṣfahānī (Explanation of al-Lumaʿ by al-Aṣfahānī), edited by Ibrahim ibn Muhammad Abu Abah, published by the Department of Culture and Publication, Imam Muhammad ibn Saud Islamic University, 1990, p. 931.

8. Al-Sakaki, Imam Abu Yaqub Yusuf ibn Abi Bakr ibn Muhammad, Miftah Al-Ulum, annotated by Naim Zarzur, Dar al-Kutub al-Ilmiyya, Beirut, Lebanon, 1987, p. 621.

9. Al-Zamakhshari, Abu al-Qasim Mahmud ibn Umar, edited by Fakhr Salih Qaddara. Al-Mufaṣṣal fī ʿilm al-ʿArabiyya (The Detailed in the Science of Arabic), Dar Ammar, Jordan, 2003, p. 565.

10. Ibn Yaish, al-Allama. Sharḥ al-Mufaṣṣal fī Ṣanʿat al-Iʿrāb (Explanation of al-Mufaṣṣal in the Art of Parsing), edited by Dr. Emil Badiʿ Yaʿqub, Dar al-Kutub al-Ilmiyya, Beirut, 2001, p. 462.

11. Al-Anbari, Abd al-Rahman ibn Muhammad ibn Ubayd Allah al-Ansari, Abu al-Barakat, Kamal al-Din, edited by Muhammad Bahjat al-Bitar. Asrār al-ʿArabiyya (Secrets of Arabic), al-Taraqqi Press, Damascus, 1377 AH, p. 494.

12. Al-Ghalayini, Sheikh Mustafa. Jāmiʿ al-Durūs al-ʿArabiyya (Comprehensive Arabic Lessons), edited by Ali Sulayman Sabara, al-Risala Foundation Publishers, Beirut, Lebanon, 2010, p. 804.

13. Al-Khwarizmi, Sadr al-Afadil al-Qasim ibn Husayn, edited by Dr. Abd al-Rahman ibn Sulayman al-Uthaymin. Sharḥ al-Mufaṣṣal fī Ṣanʿat al-Iʿrāb bi-l-Takhmīn, Part Three, Dar al-Gharb al-Islami, Beirut, Lebanon, 1990, p. 358.

14. Abu Anas Malik bin Salim bin Matar Al-Mahdhari. "Al-Mumti' fi Sharh Al-Ajrumiyyah" (The Enjoyable Explanation of Al-Ajrumiyyah). Dar Al-Hadith Library, Sana'a. 1435 AH. p. 219.

15. "Imam Hussein bin Ali bin Hajjaj al-Saghnaqi, 'Al-Mawsil fi Sharh al-Mufassal' (The Connector in the Explanation of al-Mufassal), a Study and Investigation by Ahmed Hassan Ahmed Nasr, Umm Al-Qura University, Makkah Al-Mukarramah, 1998 AD, p. 1251."

16. "Dr. Ali Moussa Al-Shoumali, Explanation of Alfiyyah Ibn Mu'ti, Part Two, Al-Khuraiji Library, Riyadh, 1985, p. 1504."